



Religious interpretation of mythological characters in the literary text, and the characters of an angel, hur, jinn, dev, iblis in folk mythology

Nodira ISAKOVA¹, Mansur KUCHIBOYEV²

Samarkand State University named after Sharof Rashidov
University of Economics and Pedagogy, Samarkand Branch

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form

15 October 2025

Accepted 15 November 2025

Available online

05 Desember 2025

Keywords:

myth,
mythology,
demon,
devil,
demon,
fairy,
giant,
witch,
kohiqof,
cult.

ABSTRACT

The article discusses that the images that played an important role in the mythology of the Turkic peoples, with the passage of time, improved their functions and transitioned to written literature, occupying an important place in poetic texts, and also analyzes the artistic and religious interpretations of this worldview in Nasreddin Rabguzi's work "Qissasi Rabguzi." The article examines primitive, celestial, animistic and dualist concepts.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss6-pp58-63>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Badiiy matnda mifologik obrazlar, farishta, hur, jin, shayton va xalq mifologiyasidagi pari, dev, iblis obrazlarining diniy talqini

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

mif,
mifologiya,
jin,
shayton,
iblis,

Maqolada turkiy xalqlar mifologiyasida muhim o'rin tutgan obrazlar davrlar o'tishi bilan o'z funksiyalarini takomillashtirib, mukammallashgan holda yozma adabiyotga ham o'tganligi, poetik matnlarda ham muhim o'rin tutishi to'g'risida fikr yuritilgan hamda Nasriddin Rabg'uziyaning "Qissasi Rabg'uzi"

¹ PhD, Associate Professor, Samarkand State University named after Sharof Rashidov.

² Senior Lecturer, University of Economics and Pedagogy, Samarkand Branch.

pari,
dev,
jodugar,
ko'hiqof,
kult.

asarida mazkur dunyoqarashning badiiy va diniy talqinlari tahlil qilinadi. Maqolada ibtidoiy, samoviy, animistik, dualistik va esxatologik miflar kabi turlarning asardagi namunalari misollar orqali yoritilgan.

Религиозная интерпретация мифологических образов в художественном тексте: ангелов, гурий, джиннов, дьявола, а также образов пери, дэвов и иблиса из народной мифологии

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

миф,
мифология,
джинн,
шайтан,
иблис,
пери,
дэв,
колдунья,
Кухикаф,
культ.

В статье рассматривается, как образы, игравшие важную роль в мифологии тюркских народов, с течением времени совершенствовались свои функции и перешли в письменную литературу, занимая важное место и в поэтических текстах. Также анализируются художественные и религиозные интерпретации этого мировоззрения в произведении Насриддина Рабгузи «Кисса-и Рабгузи». В статье на примерах освещаются образцы первобытных, небесных, анимистических, дуалистических и эсхатологических мифов, представленных в произведении.

Ma'lumki, mifologik dunyoqarashning paydo bo'lishi olis davrlarga borib taqaladi. Tabiatda sodir bo'ladigan suv toshqini, yer qimirlashi, tog'larning ko'chishi, vulqon otilishi, momaqaldiraq, chaqmoq chaqishi kabi hodisalar qadimgi odamlar tasavvurida olamning yaralishi, insonlar, hayvonot va nabotot, parrandayu darrandalarning qay tartibda paydo bo'lganligi, tabiat hodisalari haqidagi ilk ibtidoiy tushunchalarning yuzaga kelishiga zamin hozirlagan. Bu hodisalar mohiyatini izohlashga urinish esa turli xalqlarda ma'budlar, ilohiy obrazlar, afsonaviy qahramonlar haqida e'tiqodiy qarashlarning paydo bo'lishiga asos bo'lgan. Bugungi kunda xalq og'zaki ijodida tilga olinadigan jin, shayton, iblis, pari, dev, jodugar kabi obrazlar ham aslida ana shu tasavvurlar hosilasi hisoblanadi. Shunisi e'tiborliki, bu obrazlar turli xalqlarda hayotiy, aslida mavjud mavjudotlar sifatida qabul qilingan. Keyinchalik dinlar paydo bo'lishi bilan mifologik qarashlar yanada teranlashgan va diniy e'tiqoddan mustahkam o'rin egallagan. Ibtidoiy tasavvurlar tufayli miflar paydo bo'lgan va o'zi mansub bo'lgan hududlarda keng tarqalgan. Folklorshunos M. Jo'raevning ta'kidlashicha, ajdodlarimizning olam, tabiat hodisalari va ijtimoiy hayot xususidagi qadimiy fantastik tushunchalarini o'zida aks ettirgan miflar quyidagi turlarga bo'linadi. 1) *ibtido haqidagi miflar* (olamning yaratilishi va yerda hayotning paydo bo'lishi to'g'risidagi miflar); 2) *samoviy miflar* (osmon jismlari va tabiat hodisalarining paydo bo'lishi haqidagi miflar 3) *aitropogenik miflar* (g'ayrioddiy xislatga ega bo'lgan afsonaviy pahlavonlar haqidagi miflar-masalan, Gerakl, Gilgamesh, Odami Od, Xubbi kabi pahlavonlar haqidagi miflar); 4) *kult miflari* (muayyan e'tiqodiy ishonchlar bilan bogliq miflar, masalan, hosildorlik kulti, suv kulti, o'simlik kulti, olov kulti haqidagi miflar); 5) *totemistik miflar* (urug'-qabilalarning kelib chiqishi bilan aloqador miflar; masalan, 92 o'zbek urug'larining paydo bo'lishi haqidagi mif); 6) *kalendar miflar* (yil, oy, kun hisobi

bilan bog'liq miflar-masalan, ayamajuz, axman-daxman, chilla, to'qson hisobi bilan bog'liq miflar); 7) *o'lib-tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar* (masalan, Gifeeyui haqidagi mifologik syujetlar); 8) *animistik miflar* (jon to'g'risidagi mifologik tasavvurlar); 9) *manie,lik miflar* (ajdodlar homiyligi xakidagi miflar); 10) *dualistik miflar* (ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtasidagi kurash haqidagi asotiriy qarashlarni o'zida aks ettirgan miflar); 11) *esxatologik miflar* (olamning intihosi haqidagi miflar-masalan, oxir zamon to'g'risidagi mif) [1]

Miflarda barcha voqea-hodisalar bosh mifologik obrazga bog'liq holda yuz beradi. Ular g'ayritabiiy kuchga ega bo'lib, xalq manfaatlarini himoya qiladi, devlar, alvastilarga qarshi kurashadi, ba'zan ma'budlarga qarshi jang qiladi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da berilishicha, "Mifologik obrazlar – xalq, og'zaki badiiy ijodiyoti, yozma adabiyot va san'at asarlaridagi mifologik negizga ega bo'lgan asotiriy personajlar. Mifologik obrazlar muayyan voqea-hodisaning jonlantirilgan timsoliy ifodasi bo'lib, voqelikning mohiyatini metaforik, ramziy va istioraviy holatda o'ziga ko'chiradi va uning shakliy tajassumi hisoblanadi. Mifologik obrazlar ibtidoiy badiiy uydirma-fantaziya mahsuli bo'lib, koinot, tabiat va jamiyatdagi turli-tuman hodisalar, kadimgi odam tasavvurida mavjud bo'lgan g'ayrioddiy kuchlarning kelib chiqish sabablarini izohlashga xizmat qilgan. Badiiy tafakkur shakllangach, qadimiy mifologiyannig tarkibiy qismi sanalgan asotiriy obrazlar adabiyot va san'atga ko'chgan [2].

Nasriddin Rabg'uziy tomonidan 1310-yilda yozilgan "**Qissasi Rabg'uziy**" asari diniy-didaktik ruhdagi hikoyatlar to'plami bo'lsa-da, unda qadimgi **mifologik qarashlarning izlari** kuchli saqlanib qolgan. Bu asar orqali **mifologik tafakkurdan diniy tafakkurga o'tish bosqichi** yaqqol ko'rinadi. Asarning "Odam Ato va Momo Havo" haqidagi qissasida olamning yaratilishi, odamning paydo bo'lishi va farishtalar hamda shayton o'rtasidagi kurash tasvirlanadi. Bu holat **ibtidoiy miflarning** diniy shaklda ifodasidir. "Alloh Odamni yaratgach, Iblis unga sajda etishdan bosh tortdi. Shundan keyin Iblis la'natlandi va odamlar dushmani bo'ldi." Bu rivoyat qadimgi mifologiyadagi **ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtasidagi abadiy kurashni** (dualistik mif) ifodalaydi. "Alloh avval suvni yaratdi, so'ng arshni suv ustida qo'ydi, so'ngra osmon va yerni ajratdi."

Bu ifoda suv kulti va yaratilish miflariga xos elementlarni o'zida mujassam etgan.

Shuningdek, ruh, jon va farishta haqidagi fikrlar animistik mifologik qarashlarni diniy asosda davom ettiradi.

"Qissasi Rabg'uziy"dagi payg'ambarlar hayoti haqidagi rivoyatlar mo'jizalar bilan boy. Masalan: Ibrohim (a.s.)ning olovda kuyib ketmasligi, Musoning dengizni ikkiga ajratishi, Iso (a.s.)ning o'likni tiriltirishi – bular **o'lib-tiriluvchi tabiat kultlari** va **esxatologik miflar** mazmuni bilan uyg'un.

Bu orqali Rabg'uziy insonni ezgulikka, e'tiqod va imonga chorlaydi, lekin buni qadimiy miflarning badiiy ramzlari orqali ifodalaydi.

Asarda farishtalar, jinlar, shayton kabi mavjudotlar faol obraz sifatida ishtirok etadi. Ularning xatti-harakatlari xalq og'zaki ijodidagi pari, dev, iblis, jodugar obrazlariga juda yaqin.

"Har bir inson bilan ikki farishta bo'lur: biri yaxshilikni yozur, biri yomonlikni yozur."

Bu misolda dualistik dunyoqarash (ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash) diniy shaklda ifodalangan.

Garchi “Qissasi Rabg‘uziy”da “pari” so‘zi kam ishlatilsa-da, hur, farishta, jannat malikasi singari obrazlar pari timsolining diniy shakllari sifatida uchraydi.

“Jannatda hurlar bo‘lur, ular nurdan yaralgan, go‘zal, mo‘minlarga hamroh bo‘lur.”

Bu tavsif o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi pari – nurdan yaralgan, odamlarga yaxshilik qiluvchi, poklik va go‘zallik ramzi haqidagi tasavvur bilan bevosita uyg‘unlikda.

Demak, Rabg‘uziy asarida pari obrazining diniy talqini – hur va farishta timsollarida ifodalangan.

“Qissasi Rabg‘uziy” asari bu jarayonning yorqin namunasi bo‘lib, unda:

Yaratilish (ibtidoiy) miflari, Ezgulik va yovuzlik kurashi (dualistik), Ruh va jon haqidagi animistik, Oxir zamon va tirilish (esxatologik) qarashlar diniy shaklda ifodasini topgan.

Asardagi **farishta, hur, jin, shayton** obrazlari xalq mifologiyasidagi **pari, dev, iblis** obrazlarining diniy talqinidir. Demak, Rabg‘uziy o‘z asari orqali **mifologik dunyoqarashni diniy-estetik shaklda davom ettirib**, xalq tafakkurining tarixiy ildizlarini asrlar osha yozma adabiyotga ko‘chirgan.

O‘zbek mumtoz adabiyotida, “Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Rustamxon” hamda “Go‘ro‘g‘li” siklidagi dostonlarda, turli afsona va ertaklarda mifologik obrazlar muhim o‘rin tutadi. Sinchiklab tadqiq etilsa, aksariyat xalq dostonlarining negizini qadim miflar tashkil qiladi. Bu dostonlar syujeti, yetakchi motivlarining tub ildizlari semantik va struktural jihatdan tadqiq etilsa, bugungi kunda deyarli unutilgan o‘zbek-turkiy mifologik olam ko‘z o‘ngimizda qayta tiklanadi. O‘zbek folklorshunosligida bu borada ma‘lum ishlar amalga oshirilgan. O‘zbek folklorshunosligida J. Eshonqulov tomonidan dev obrazi [3], O. Qayumov tomonidan pari obrazi [4], D. Fayzieva tomonidan ilon obrazi tadqiq etilgan [5].

Keyingi davrlarda badiiy ijod rivojlana boshlashi bilan mifologik obrazlar yozma adabiyotga ham kirib kelgan. Boshqa xalqlar adabiyotlari singari o‘zbek adabiyotida ham turli xil mifologik obrazlar mavjud bo‘lib, ular xalqimizga xos bo‘lgan xususiyatlarni ifodalash vositasi sifatida

og‘zaki va yozma adabiyotimizda qo‘llanib kelinmoqda. Ayniqsa, poetik matnlarda mifologik obrazlar, xususan, pari obrazi badiiy-estetik ta‘sirchanlikni oshirish, obrazlilikni ta‘minlash vositasiga aylangan. “Tarix atamalarining qisqacha izohli lug‘ati”da berilishicha, “Pari (f.-t.) –juda go‘zal qiz qiyofasidagi, go‘yo nurdan yaratilgan, kishilarni ins-jinslardan saqlaydigan afsonaviy maxluq [6]. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da qayd etilishicha, Pari – Sharq xalqlari folklorlarida keng tarqalgan mifologik obraz; ma‘shuqa timsolining ideallashtgan shakli; go‘zallik ramzi. Dastlab „Avesto“da payrika shaklida uchraydi” [7].

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan “Malika ayyor” dostonida aytilishicha, Go‘ro‘g‘li bir qo‘rg‘onda parilarga duch kelib qoladi: *“osmondan bir ko‘k kaptar quyulib kelib, bir og‘nab turib, bir surxayil gardon, ofati jon, pista dahan bir ajib nozanin pari bo‘lib turadi”*.

Folklor materiallarida pariga berilgan tavsiflarni badiiy matnda, xususan, poetik matnlar tilida ham uchratish mumkin. Usmon Azimning “Ilk she‘rning yozilishi haqida ballada” asarida bayon qilinishicha,

Mashriq taraf qoraya boshlar, Mag‘ribda-chi, shafaq so‘nadi.

Kabutarlar osmonni tashlab, Bir yalangga kelib qo‘nadi.

Ular yechar qush liboslarin – Qirqta pari bo‘ladi paydo.

Butazorlar aro o‘spirin Termuladi ularga shaydo.

Parchadan parilarning mifologik tasavvurlarga ko'ra, zoomorf qiyofada, istagan shaklga kira olishlari, asosan kaptar shaklida odamlarga ko'rinishi qayd etiladi. Keyingi misralarda esa ularning kimsasiz joylarda o'yin-kulgu qilishi tasvirlangan:

Eshitilar qandaydir bir kuy, Sho'x yangraydi tanburmi, chiltor.

Qirqta pari – tonglarday xushro'y – Bazm boshlaydi, aytishib alyor.

Balladaning keyingi o'rinlarida yigitning pari qizning kiyimlarini olib qo'yishi holati aks etgan:

To'zgib-tuzg'ib tunning qa'rida Uchadilar parilar shoshib.

Biri qolar yalang bag'rida Qo'llarini havoda yozib.

Xalq og'zaki ijodida parilarning jinlar toifasiga mansubligi, kishiga ta'sir qilishi holatlari tasvirlangan o'rinlar ko'p uchraydi. Quyida dialogik muloqotda parining o'zini tanishtirishi orqali yigitga ta'sir qilishi kuzatiladi:

"Sevaman", deb yig'lar o'spirin, Pari esa avraydi:– o'g'lon,

Gar va'dangiz hayotday shirin, Yer – sizdandir, mendandir – osmon.

Matnda osmon deyilganda inson ko'ra olmaydigan g'ayb olami nazarda tutilmoqda.

Pari va yigit o'rtasidagi muloqotda qo'rqitish usulidan ham foydalanilgan:

Osmon bilan o'ynashmang – qo'rqing, Ko'z yosh to'kmang, ishqdan urmang lof.

Hali-zamon qudratli qo'shin –Qo'zg'oladi butun Ko'hi Qof...

Pari esa yolvorar betin:– Libosimni bering, ey, odam!

Silkinadi hozir bu jahon, Zulmat cho'kar, bo'ron yeladi.

O'g'lon, sizni etgani qurbon Uchib lak-lak devlar keladi...

Matndan anglashiladiki, rivoyatlarga ko'ra, parilar Ko'hi Qof tog'i yaqinidagi Eram bog'ida yashaganlar, o'z shohi va saltanatiga ega bo'lishgan, ularni g'ayritabiiy kuchlar – devlar qo'riqlagan. Ertaklarda parilar nihoyatda go'zal, aqli, donishmand, latofat va nazokat egasi sifatida ta'riflangan [9].

Mifologik tasavvurlarga ko'ra, parilar jinlar toifasiga mansubligi bois turli qiyofaga kira oladilar, agar o'zlari istasa, insonlarga ko'rinadilar. Quyida parilarning ruh deb tasvirlanishida ana shu xususiyatlar, yigitga nisbatan vujud deb atalishida esa insonning vujudi bunday xususiyatlarga ega emasligiga ishora mavjud:

Pari unga boqar beorom, Allaqanday titrab, o'ksinib:

– Biz tushganmiz ertak mahriga, Parilar – ruh, yigit, siz – vujud

Duchor bo'lmang xudo qahriga, Qolmang abad do'xaxni quchib [10].

Keltirilgan misollar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, G'arb mifologiyasidan farqli ravishda pari obrazi sehrli, g'ayritabiiy kuchga ega, insonlarga yaxshilik qiluvchi, to'g'ri yo'lga boshqaruvchi, adolatli, jasur, qahramonlarga yordam beruvchi mavjudot hisoblanadi. Dastlab halq og'zaki ijodida mavjud bo'lgan mifologik obrazlar davrlar o'tishi bilan yozma adabiyotda ham o'z o'rniga ega bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. Тошкент, 2008. Б.6.
2. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/mifologik-obrazlar-uz/>
3. Эшонқулов Ж.С. Ўзбек фольклорида дев образининг мифологик асослари ва бадий талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 23 б.
4. Қажумов О. Ўзбек фольклорида пари образи (генезиси ва поэтикаси): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б25 б.

5. Файзиева Д. Ўзбек фольклорида илон образи (генезиси ва бадиияти):
Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004.
6. [https://yangiasr.uz/files/books/2024-02-28-12-14-14_
c13e6592509f4810d920f0475671f141.pdf](https://yangiasr.uz/files/books/2024-02-28-12-14-14_c13e6592509f4810d920f0475671f141.pdf)
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Pari>
8. Ўзбек халк ижоди Кўп томлик. Малика Айёр.. - Тошкент, 1988, Б.7.
9. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Pari>
10. [https://n.ziyouz.com/books/uzbek_zamonaviy_sheriyati/Usmon
%20Azim.%20Saylanma.pdf](https://n.ziyouz.com/books/uzbek_zamonaviy_sheriyati/Usmon%20Azim.%20Saylanma.pdf)